
Hokimlik qabuli: O'ttizdan ortiq murojaat ijobiy hal etildi

Joriy haftadagi shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Ulug'bek Oripov va ma'muriy ishlar bo'yicha sud raisi Solijon Qurbonov, majburiy ijro byurosi boshlig'i Dilshodjon Ismoilov, Xalq qabulxonasi mudiri Tavakkaljon Rahimov va hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

Sharqiy harbiy okrugining Ma'naviyat va ma'rifat markazida 150 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari mas'ullar ishtirokida o'rganildi. O'ttiz nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga topshiriqlar berildi.

Qabul so'ngida murojaatlarni hal etilishi darajasi tanqidiy tahlil qilindi. Murojaatlarga mas'uliyatsizlik bilan yondoshgan rahbarlarga ogohlantirish berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-15 18:42:22